

**TOSHKENT VILOYATI PARKENTSOY HUDUDIDAGI AVTOMOBIL  
YO'LI O'TGAN SUN'IY INSHOOTLARGA SEL OQIMLARI  
TA'SIRINI TAHLIL QILISH**

**Irisqulova Kamola Normat qizi**

**Salimova Barno Djamalovna**

**Yadgarov Sirojiddin Namozovich**

Toshkent davlat transport universiteti (Toshkent, O'zbekiston)

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Toshkent viloyatida sodir bo'lgan sel hodisalari, Parkentsoy hududidagi sel toshqinlarining yillar kesimidagi sarhisobi GAT ma'lumotlaridan foydalangan holda tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** Sel oqimlari, sel xavfi, Parkentsoy, avtomobil yo'li, sel oqimlari ta'siri.*

**ANNOTATION**


*In this article, the flood events in the Tashkent region, the annual summary of the floods in the Parkentsoi area are analyzed using GIS data.*

***Keywords:** Flood currents, flood risk, Parkentsoy, highway, impact of flood currents.*

O'zbekistonning tog'li hududlarida ko'pincha avtomobil va temir yo'llar sel va qor ko'chkilaridan aziyat chekadi, ularning vayron bo'lishi va to'sib qo'yilishi transport harakatining uzoq davom etishiga, favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishiga va odamlarning qurbon bo'lishiga olib keladi. Sel oqimlarining transport infratuzilmasiga ta'sirini o'rganish va undan himoyalalanish borasida bir nechta tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, bular hamon davom ettirilmoqda. Tog'li va tog'oldi

hududlardagi sun'iy inshootlarni loyihalashda sel toshqinlarining o'ziga xos xususiyatlari va gidrologik parametrlarini takomillashtirish bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan, bulardan A.X Tulyaganov, B.D. Salimova, Y.B.Vinogradov, S.M.Fleyshman, I.E.Karimov, X.A.Ismog'ilov, I.Chupin, F.X.Xikmatov va boshqalardir. Mamlakatimizda Surxondaryo, Namangan, Farg'ona, Toshkent va Jizzax viloyatlari sel toshqinlari eng ko'p yuz beradigan viloyatlar hisoblanadi.

Toshkent viloyati mamlakatning shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, Qirg'iziston va Qozog'iston respublikalari, Sirdaryo va Namangan viloyatlari bilan chegaradosh. Uning maydoni 15 300 km<sup>2</sup> ni tashkil qiladi. Aholisi 4 450 000 ga yaqin. Toshkent viloyati sel toshqinlari tez-tez ro'y beradigan hudud sifatida boshqa viloyatlardan ajralib turadi. Viloyatning transport infratuzilmasi yaxshi rivojlangan: 360 km dan ortiq temir yo'l va 3771 km qattiq qoplamali avtomobil yo'llari, Toshkentda mamlakatning asosiy havo darvozasi bo'lgan katta xalqaro aeroport mavjud.



1-rasm. Sel xavfiga duchor bo'lgan avtomobil yo'llari uzunligini aniqlash uchun GAT tahlilining keng qamrovli xaritasi.(selaktiv hududlar qizil bilan belgilangan )

Toshkent viloyati hududida kuzatishlar davomida 337 ta suv toshqini holatlari qayd etilgan, bu respublika bo'yicha qayd etilgan barcha sellarning taxminan 10 foizini


tashkil etadi. Sel hodisalarining eng ko'p soni Bo'stonliq va Ohangaron tumanlari hududida qayd etilgan [3].

Umuman olganda, so'nggi yillarda viloyat hududida sel oqimlari faolligining kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda, bu tog'li hududlarning jadal rivojlanishi va yog'ingarchilikning yil ichidagi tarqalishi rejimining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, ularning intensivligi so'nggi yillarda ortib bormoqda.

Hozirgi vaqtda Toshkent viloyatida sel oqimlari ta'sir zonasida 76 ta aholi punkti va 16 ta texnik obyekt joylashgan. Albatta, bu mutlaqo barcha binolar xavfli zonada ekanligini anglatmaydi. Daryolarning toshqin tekisliklari va qirg'oqlarning deformatsiyasi kuzatiladigan daryo bo'ylari xavfli hisoblanadi.


Chirchiq va Angren daryolari havzalaridagi sel jarayonlari turli landshaft hududlarida turli intensivlikka ega. Eng katta sel faolligi 1200 dan 1700 metrgacha bo'lgan mutlaq belgilar bilan eroziyalangan relyef turiga ega bo'lgan tog'lar oldidagi hududga tegishlidir. Toshkent viloyatidagi yana bir selga aktiv hududlardan biri bu Parkentsoydir [2].

Toshkent viloyati Parkent tumanidagi soy (yuqori oqimida Kumushkonsoy deb nomlanadi). Uzunligi 40 km, havzasining maydoni 198 km<sup>2</sup>. Qizilnura cho'qqisi (3267 m) ning shimoli-g'arbiy yon bag'irlaridan oqib tushadigan, umumiy uzunligi 112 km bo'lgan katta-kichik irmoqlarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Parkentsoy g'arbiy yo'nalishda oqib, Chapqirg'oq Qorasuv kanaliga quyiladi. Mavsumiy qor, yomg'ir va buloq suvlaridan to'yinadi. O'rtacha sutkalik suv sarfi 0,64 m<sup>3</sup>/sek. To'lin suv davri mart—iyun oylarida, oqimining 75—80% shu davrga to'g'ri keladi. Aprel oyida suvi eng ko'p bo'ladi (o'rtacha 2,5 m<sup>3</sup>/sek). Parkentsoyda tez-tez sel toshqini ham bo'lib, bu vaqtda suv sarfi 108 m<sup>3</sup>/sek. gacha ortadi. Parkentsoydan Kumushkon, Changi, Hisarak qishloqlari hamda Parkent shahri va ular atrofidagi ekin maydonlari suv oladi. Parkentsoy hududida 40 km uzunligida jami 8 ta avtomobil yo'li o'tgan ko'prik mavjud bo'lib hammasi soz holatda aholiga xizmat ko'rsatmoqda.



2-rasm. Parkentsoydan o'tgan avtomobil yo'llarining GAT dan olingan ma'lumoti.

Parkentsoy tumanida 1990-2020 yillar mobaynida 60 dan ortiq sel hodisalari kuzatilgan.



3-rasm. Parkentsoyda sodir bo'lgan sellar va ularning hajmlari.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, respublikada ekologik vaziyatni yaxshilash, toshqin va sel hodisalarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholi va ijtimoiy obyektlarni, iqtisodiyot tarmoqlarini xavfli tabiiy hodisalarning salbiy ta'siridan

himoya qilish, shuningdek, o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan gidrometeorologik hodisalarni monitoring qilish va prognozlash tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, xavflarni oldindan bashorat qilib uni prognozlash, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda vaziyatni tahlil qilishni taqozo etmoqda. Selga aktiv hududlarni aniqlash va unga binoan inshootlarni loyihalash sel xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqot ishlarini o‘tkazishdan maqsad sel oqimlarining sun’iy inshootlarga ko‘rsatgan ta’siri, yetkazgan zararini aniqlash, xavflilik darajasi va sel oqimiga qarshi choralarni ishlab chiqishdan iboratdir. Asosiy vazifa sifatida mavjud sel havzalarini kompleks o‘rganish, Parkentsoy hududidagi barcha sun’iy inshootlarni ko‘zdan kechirish, sel oqimlarining ta’sirini amaliy ko‘rinishda tadqiq qilish, eksperiment o‘tkazish va olingan natijalarni tartibga keltirish, nazariy hamda amaliy ma’lumotlarga asoslangan holda xulosalar chiqarish va xulosalar asosida tavsiyalar ishlab chiqish kabilar olinadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B.D.Salimova “Avtomobil yo‘llaridagi suv o‘tkazuvchi inshootlarni loyihalashda suv va sel toshqinlarining tavsiflarini hisoblash”. Maqola.
2. I.E.Karimov, N.R.Samatova, Burxonov Elnur “Sellar hosil bo‘lishining asosiy qonuniyatlari”. Maqola.
3. F.X.Xikmatov “Daryolar gidrologiyasi” 175-bet T.: 2017
4. Hidrometeorologiya xizmati markazi ma’lumotlari.